

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA
INSTITUTI**

“IJTIMOIY FANLAR” KAFEDRASI

«SOTSIOLOGIYASI» fanidan

REFERAT

MAVZU: Ijtimoiy tuzilmalar sotsiologiyasi



Topshirdi:

Mamadaliev A

Qabul qildi:

B. Tojiboev

MAVZU: IJTIMOY TUZILMALAR SOTSILOGIYASI

1. Ijtimoiy stratifikasiya tushunchasi va mohiyati.
2. Ijtimoiy mobillik va ijtimoiy stratifikasiya.
3. Yoshlar sotsiologiyasining o'ziga xos xususiyati.
4. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasining mohiyati.

Sotsiologlar sotsial harakatchanlikni stratalarga (qatlamlarga) bo'lingan jamiyatning o'ziga xos xususiyati deb biladilar va uni gorizontal hamda vertikal harakatchanlikka ajratadilar. Kishilarning aynan bir tabaqa ichidagi harakati, masalan, ish joyini yoki turar joyini o'zgartirishi gorizontal harakatchanlikni anglatadi. Vertikal harakatchanlik esa quyi tabaqalardan yuqori tabaqalar tomon va aksincha qilingan harakatni bildiradi. Amerikalik sotsiolog Seymur Lipsetning fikricha, jamiyatda stratifikasiya tizimi sotsial zinaning quyi pog'onasida turganlarga norozilik manbai sifatida ta'sir qiladi, shuning uchun ham stratifikasiya tizimi ajralishning manbaidir, ammo shu bilan birga u kishilarni turli lavozimlarga tayinlashning va ularni o'z vazifalarini ado etishga rag'batlantirishning asosiy mexanizmidir. Amerika sotsiologiyasida U. Uotson Amerika jamiyatining sotsial tabaqalanish modelini ishlab chiqdi. Bu modelda oltita sotsial sinfnings tabaqalanish tartibi berilgan. Uortnerga ergashgan holda K. Deyvs, U. Mur, V. Koleman, L. Reyuter, E. Shoyx, T. Gayger, R. Darendorf kabi olimlar o'zlarining stratifikasiya sxemalarini ishlab chiqdilar.

Sotsial stratifikasiyaning tarixiy tiplari

Stratifikasiya (lot stratum - qatlam va fasio – bajaraman) - jamiyat tuzilmasi, alohida qatlamlari, ijtimoiy tabaqalanish belgilari tizimi va tengsizlikni ifoda etuvchi sotsiologik tushunchadir.

Sotsial stratifikasiya - sotsiologik tushuncha bo'lib, jamiyat va uning ayrim qatlamlari tuzilishini, ijtimoiy tabaqalanish, tengsizlik belgilari tizimini ifodalaydi, yoki boshqacha aytganda jamiyatning mulk, maqom va hokimiyat munosabatlaridan kelib chiqadigan tizimi bo'lib, u ijtimoiy rollar va vazifalarni o'zida aks ettiradi. Sotsial stratifikasiya jamiyatdagi mehnat taqsimotida turli guruhlarining ijtimoiy differensiasiyasidan (tabaqalanishuvi), shuningdek u yoki bu faoliyatning ahamiyatini va ijtimoiy tengsizlikni qonuniylashtiruvchi qadriyatlar va madaniy namunalar (standartlar) tizimining xususiyatidan kelib chiqadi. Ijtimoiy stratifikasiyaning asosiy vazifasi - turli faoliyat xillari uchun rag'batlantiruvchi tizim yordamida ijtimoiy rollarni mos ravishda idrok etish va bajarishni ta'minlashdir.

Sotsial stratifikasiyada ma'lumot, maishiy sharoit, mashg'ulot daromad, ruhiy, din va shu kabi belgilar asosida jamiyat «yuqori», «o'rta» va «quyi» sinflar hamda strat (qatlam)larga bo'linadi. Tengsizlik har qanday jamiyatda bor. Sotsial stratifikasiya tizimida kishilarning o'z qobiliyatlari va kuch-g'ayratlariga muvofiq maqomlarni o'zgartirishlari (sotsial mobillik) esa

jamiyatning barqarorligini ta'minlaydi va sinfiy kurashni «ortiqcha» qilib qo'yadi (Marksistik tadqiqotlar ijtimoiy sinflar nazariyasiga asoslanib kelingan)

Har bir ijtimoiy guruh, ayrim olingan shaxs ham jamiyat ijtimoiy tarkibida o'z o'rniga ega. Shaxs o'zining jinsi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, ma'lumoti, mutaxassisligi, oilaviy ahvoli, millati va boshqa shu kabilar bilan muayyan ijtimoiy tarkibga kiradi¹.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibi - ijtimoiy guruhlar, ularning ijtimoiy hayotdagi o'z mavqei bilan farq qiluvchi tomonlari majmuidan iborat. Oldingi zamonlarda ham jamiyat turli guruhlardan tashkil topgan. Masalan, qadimgi Hindistonda jamiyat quyidagi kastalarga bo'lingan:

- a) braxmanlar (jamiyatning oliy tabaqasi)
- b) kshatriylar (harbiylar, savdogarlar va h.)
- v) vayshlar (dehqonlar, hunarmandlar va boshqa shu kabilar)
- g) shudralar (qora xalq - qullar)

Qadimgi yunon faylasufi Aflotun ham (er.avval 4-asr) jamiyat a'zolarini 3 guruhga ajratgan:

- a) faylasuflar (yuqori tabaqa bo'lib, davlatni boshqaruvchi sinf);
- b) harbiy jangchilar;
- v) qullar - quyi tabaqa;

G'arb sotsiologiyasida jamiyat ijtimoiy tarkibi sotsial stratifikasiya tushunchasi asosida o'rganiladi. Demak stratifikasiya g'arb sotsiologiyasining asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, jamiyat ijtimoiy tarkibining ijtimoiy tabaqalarga, guruhlariga ajratilganini, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni ifoda qiladi.

Sotsial stratifikasiya nazariyasi marksizm sotsiologiyasining sinflar va sinfiy kurash nazariyasiga zid bo'lib, jamiyatning sinflarga bo'linishining asosiy sababi mulkiy munosabatlardagi holatni tabiiy-tarixiy qonuniyat sifatida qaraydi. Bu sinflarni ijtimoiy qatlamlar va guruhlarning ma'lumoti, psixologik jihatlari, turmush sharoiti, ijtimoiy bandlik, daromadi va boshqa xususiyatlar bilan farq qiladi.

AQShlik sotsiolog T.Parsons: «Stratifikasiya - ijtimoiy tizim tarkibiy ziddiyatining asosiy yuzaga keltiruvchisi» deb, uni rivojlantirdi.

G'arb mamlakatlari sotsiologlari jamiyatni «yuqori», «o'rta», «quyi» sinf va qatlamlardan iborat deb talqin qilishadi. Masalan, G'arbiy Germaniyalik sotsiolog R.Darendorf jamiyatni boshqaruvchi va boshqariluvchilar toifasiga bo'ladi. O'z navbatida boshqaruvchilar toifasi 2 guruhdan: a) mulkdor boshqaruvchilar va b) mulkdor bo'lmagan boshqaruvchilar - ma'muriy byurokrat menedjerlardan iborat deydi. Boshqariluvchilar toifasi ham 2 ga: yuqori - «ishchi aristokratiyasi» va quyi - malakasi past darajada bo'lgan ishchilardan iborat bo'lib, boshqaruvchilar va ishchi aristokratiyasining qo'shilishidan shakllanmoqda, deb fikr bildiradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, amerikalik olim U.Uotson jamiyatning sotsial stratifikasiyasi modelini ishlab chiqqan. U quyidagi ko'rinishga ega:

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: Ўзбекистон, 1999, 7-бет.

Oliy oliy sinf

Umummilliy korporasiyalarning bosh boshqaruvchilari, obro'li firmalarning egalari, oliy harbiy amaldorlar, federal sudyalar, birja egalari, yirik arxitektorlar, arxiepiskoplar

Oliy sinf

O'rtacha firmaning bosh boshqaruvchisi, muhandis-mexanik, gazeta chiqaruvchi, xususiy amaliyotga ega bo'lgan shifokor, amaliyotchi yurist, kollej o'qituvchisi.

Oliy o'rta sinf

Bank kassiri, munisipial kollej o'qituvchisi, o'rta bo'g'in boshqaruvchisi, o'rta maktab o'qituvchisi

O'rta o'rta sinf

Bank xizmatchisi, tish doktori, o'rta maktab o'qituvchisi, korxonadagi smena boshlig'i, sug'urta kompaniyasi xizmatchisi, universam boshqaruvchisi, malakali duradgor

Quyi o'rta sinf

Avtomexanik, sartarosh, barmen, jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi malakali ishchi, mehmonxona xizmatchisi, pochta ishchisi, polisiyachi, yuk mashinasi haydovchisi

O'rta quyi sinf

Taksi haydovchisi, o'rta malakali ishchi, benzin quyuvchi, ofisiantka, eshik og'asi, idish -tovoq yuvuvchi, uy xizmatkori, bog'bon, eshik qorovuli, konchi, ko'cha supiruvchi, axlat tashuvchi

Xuddi shuningdek, akademik T.I.Zaslavskaya ham hozirgi Rossiya jamiyatining sotsial tarkibini ko'rsatib bergan. Unga ko'ra, bu tarkibiy tuzilish quyidagi ko'rinishga ega: **Yuqori, o'rta, bazaviy va quyi.**

Yuqori qatlamga asosan elita guruhlar mansub bo'lib, ular davlat boshqaruvi, iqtisodiy sohalardagi yuqori mansablarni egallagan kishilar hisoblanadilar.

O'rta qatlamga esa, o'rta va kichik tadbirkorlar, o'rta korxonalar menejmentlari, katta ofiserlar tegishli hisoblanadilar. **Bazaviyga** esa, ziyolilarning asosiy qismi, texnik xizmatchilar, savdo va xizmat ko'rsatish sohalari xodimlari hamda dehonlarning ko'pchilik qismi kiradi. **Quyi tabaqaga** asosan keksalar, past ma'lumotlilar, sog'ligi unchalik yaxshi bo'lmaganlar hamda ayrim qochoqlar kiradi.

Jamiyat ijtimoiy tarkibi turli ijtimoiy birliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ham ifodalaydi. Masalan:

- ijtimoiy-sinfiy, guruhlararo (sinflar, ijtimoiy tabaqalar, qatlamalar);
- ijtimoiy-demografik (yoshlar, o'rta yoshlar, xalqlar);
- ijtimoiy-professional (kasb-korga qarab o'qituvchilar, injener, tibbiyot xodimlari va h.k.);
- ijtimoiy-hududiy (mintaqa, shahar, qishloq, rayon, mahalla, aholisi)

Ijtimoiy o'zgaruvchanlik tushunchasi: Ijtimoiy o'zgaruvchanlik sotsiologik tushuncha bo'lib, demografik va ijtimoiy faoliyatlarda qo'llaniladi. Shaxsning

bir sinfdan ikkinchi bir sinfga, bir ijtimoiy guruhdan ikkinchi bir ijtimoiy guruhga o'tishi, jamiyat ijtimoiy tarkibida tutgan o'rnini, o'zgarishini bildiradi.

Shaxs misolida go'dak bola, o'smir, yoshlik, o'rta yoshlik, qarilik. Ma'lumot, olai, hunar o'rganadi, kasb egallaydi. Uning jamiyatda tutgan o'rnini o'zgarib boradi. O'quvchi edi, ishchi bo'ldi, yo student bo'ldi, nafaqaxo'r va boshqa.

Jamiyat misolida. Jamiyat asosini tashkil etgan insonlar hayotida ijtimoiy o'zgaruvchanlik jarayoni sodir bo'ladi. Sinflar paydo bo'lishida, sinflarning bir ko'rinishdan ikkinchi bir ko'rinishga o'tishida, jamiyat sinfiy strukturasida, undagi ishlab chiqarish kuchlari joylashishida, taraqqiyotida, fan, texnika, madaniyat, sa'nat taraqqiyotida o'z aksini topadi. Masalan, qul, kretyan, ishchi, sovxozchi, pomeshchik, kapitalist, fermer.

Ijtimoiy o'zgaruvchanlik turli ko'rinishlarda sodir bo'ladi va sotsial mobillik tushunchasi bilan izohlanadi.

Sotsial mobillik - individ, sotsial guruhning bir sotsial qatlamdan boshqa bir qatlamga o'tishi. U yoki bu sotsial sub'ektning sotsial strukturadagi o'rnining o'zgarishi. Sotsial mobillik gorizontal va vertikal mobillik ko'rinishida bo'ladi.

Gorizontal mobillik individ yoki sotsial ob'ektning bir sotsial holatdan shu darajadagi boshqa holatga o'tishi. Masalan, bir oiladan boshqasiga, bir diniy guruhdan ikkinchisiga, bir turar joydan boshqasiga va h. **Vertikal mobillik** esa, individ yoki sotsial ob'ektning bir sotsial qatlamdan boshqasiga o'tishini anglatadi. Bunga misol sifatida kasb bo'yicha ko'tarilish, moddiy ahvolning sezilarli darajada o'zgarishi, hokimiyatning boshqa pog'onasiga ko'tarilish va boshqalar kiradi.

Sotsial mobillik individual, guruhiiy, ko'tariluvchan, pasayuvchan, ixtiyoriy va majburiy mobilliklarga ham bo'linadi.

Sotsial mobillikni belgilashda **hokimiyatda bo'lish, daromad, ma'lumot, yosh darajasi, ijtimoiy kelib chiqish** kabi omillar muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy o'zgaruvchanlik (mobillik) quyidagi yo'nalishlarda ham namoyon bo'ladi :

1. Reproduktiv. Ishlab chiqarish, tuzilishi, ekologik o'zgarishlar.
2. Statusli - xizmat pog'onasiga ko'tarilish, hayot darajasi va boshqa.
3. Territorial - qishlokdan shaharga ko'chish, ishlab chiqarishni ko'chirish, bir davlatdan ikkinchisiga qo'shish va h.k.
4. Ma'naviy - manfaatlar, qadriyatlar, fikr, gushunchalar, his-tuyg'ular.
5. Siyosiy (sinfiy struktura), hukmronlik shakli.
6. Ilmiy-texnikaviy va hokazo.

Bozor munosabatlarining tarkib topishi jarayonida O'zbekiston ijtimoiy tarkibida keskin o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlar sinflar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqalar o'rtasidagi turli munosabatlarda har tomonlama ifodasini topmoqda.

2. Ijtimoiy mobillik va ijtimoiy stratifikasiya

O.Kont sotsiologiyasida sotsial dinamika jamiyat hodisalarini o'rganishdagi muayyan yondashuvni bildiradi. Aslida, dinamika mexanikaning jismlar harakatini va harakat bilan uni yuzaga keltiruvchi kuch o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganadigan bo'limdir. Umumiy ma'noda dinamika harakat holatini, narsa-hodisalarning o'sish, o'zgarish, rivojlanish jarayonini anglatadi. Sotsiologiya «Fiziologiya» ning bevosita davomi yoki «Sotsial fizika» deb hisoblangan. Kont ijtimoiy voqelikning tabiiy qonunlarini topishga harakat qilgan edi. Ana shu vazifani amalga oshirish uchun ijtimoiy voqelik ikki yo'nalishda - sotsial statika yo'nalishida va sotsial dinamika yo'nalishida ko'rilishi lozim. Sotsial statika ijtimoiy elementlarning muvozanatini, mavjudlik qonunlarini o'rganadi. Ijtimoiy elementlarning uzviy uyg'unligi, ularning o'zaro muvozanatlashgan tarzda mavjudligi jamiyatni yaxlit bir butunlik sifatida qarashga imkon beradi. Shuning uchun ham jamiyat alohida o'ziga xos tizim bo'lib, bunda eng muhimi, elementlarning o'zaro aloqasidir. Sotsial statika har qanday jamiyat barqarorlik, muvozanat holatini, asosiy tartibotni o'rgansa, sotsial dinamika jamiyatdagi o'zgarish, rivojlanishning izchilligi, birin-кетинligini ochib beradi. Shunday qilib, sotsial dinamika jamiyatning o'zgarish va rivojlanish holatlarini, ijtimoiy o'zgarishlarning ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) omillarini ifodalovchi sotsiologik kategoriya deb qaralishi mumkin. Jamiyatni tashkil etuvchi sotsial guruhlar, individlar, tabaqalar, qatlamlarning harakatlarini sotsial dinamikaning sotsial mobillik (lotincha mobilis - harakatchan, o'zgaruvchan) va sotsial o'zgarishlar, deb ataladigan ko'rinishlari ifodalaydi. Sotsial mobillik tushunchasi sotsiologik tadqiqotlar doirasiga P. Sorokin kiritgan edi. Sotsial mobillik kishilarning muayyan ijtimoiy guruh va tabaqalardan boshqalariga o'tishlarini (sotsial o'zgarishlar), shuningdek, ayni bir sotsial tabaqa doirasida mashg'ulotlarning o'zaro almashtirishini anglatadi. Sotsial mobillik tushunchasi guruhlar va bir butun jamiyatlar «ochiqqligi» yoki «yopiqqligi»ni tavsiflash uchun ishlatiladi. U intergenerasion (avlodlar orasidagi) va integenerasion (avlod ichidagi) sotsial mobillik turlariga ajratiladi. Sotsial holatning otadan o'g'liga (kamdan-kam hollarda onadan qizga) o'tishi generasion sotsial mobillikka, sotsial ko'tarilish yoki sotsial pasayish bilan bog'liq individual belgilar esa intragenerasion sotsial mobillikka misol bo'la oladi. O'zgarishlar yo'nalishiga qarab vertikal (ko'tarilish va pasayish) va gorizontal sotsial mobillik bo'yicha farqlanadi. Sotsial mobillikning emperik ko'rsatkichi bo'lib o'zgaruvchanlik-mobillik, barqarorlik-stabillik indeksi xizmat qiladi. Bu indeks tekshirilayotgan guruhdagi mobil va stabil shaxslar nisbatidan olinadi. Bundan tashqari mobil (o'zgaruvchan) shaxslarning jinsi, ma'lumot darajasi, «aqli rasolik koeffisienti», millati, irqi, turarjoyi, sog'-salomatligiga qarab ham sotsial mobil shaxslarning miqdoriy ko'rsatkichlari o'rtasidagi korellyasiya (mos keluvchi) koeffisientlari hisoblanishi mumkin. Sotsial mobillik o'lchashda turli xil imkoniyatlarning mavjudligi miqdoriy analiz qo'llanishidan kelib chiqadi. Sotsial mobillik darajasini aniqlash yordamida u yoki bu jamiyatni «an'anaviy», «zamonaviy», «industrial», «postindustrial» va hokazolarga bo'lish mumkin.

Sotsial differensiasiya va sotsial integrasiyani sotsial mobillik va o'zgartirishlar oqibati deb qarash mumkin. Sotsial differensiasiya tushunchasi birinchi bo'lib G. Spenser tomonidan qo'llanilgan. Uning fikricha, ijtimoiy evolyusiya bir vaqtning o'zida differensiasiya (bir xillikdan ko'p xillikka o'tish: mehnat taqsimoti, maxsus sotsial institutlar paydo bo'lishi) va integrasiya (organlarining bir-birlariga tobora muvofiqlashib borishi, oddiydan murakkabga o'tish, umumiy aloqadorlik takomillashuvi), ijtimoiy tartibot mukammallashuvidan iboratdir.

E.Dyurkgeym sotsiologik tizimida ham jamiyatdagi differensiasiya va integrasiya jarayonlariga e'tibor bergan. U differensiasiyani aholi zichligining oshishi va shaxslararo va guruhlararo muloqatlar sur'atiga bog'lab tushuntirgan. Odatda, differensiasiya tushunchasi «tafovut» so'zining sinonimi sifatida ishlatiladi. Bu holda u rollar, statuslar (maqomlar), institut va tashkilotlarni turli mezonlar yordamida klassifikasiya qilishga yordam beradi.

Strukturaviy funksionalizm va sistemali yondashuv tarafdorlari (Parsons, Etsoni va b.) sotsial differen-siasiya bilan sotsial sistemaning o'z-o'zini saqlashi shart deb qaraydilar. Bunda sotsial differensiasiyaning yaxlit jamiyat, uning ostki tizimlari, guruhlari darajasida ko'rinishlari qat'iy farqlanadi. Ularnig fikricha, quyidagi hayotiy muhim vazifalar - muhitga moslashish, maqsadlarini qo'ya bilish, ichki ixtiloflarni bartaraf etish (integrasiya) va hokazolar bajarilgandagina muayyan tizim mavjud bo'la olishi mumkin. Bu vazifalar esa faqat ozmi-ko'pmi maxsuslashgan institutlar tomonidagina bajarilishi mumkin. Demak, bunga muvofiq sotsial tizimlar ozmi-ko'pmi differensiasiyalashgan (tabaqalashgan) bo'ladi. Sotsial differensiasiya o'sishi bilan faoliyatlar ham maxsuslashib boradi, shaxsiy va oilaviy aloqalar o'z o'rnini borgan sari odamlar o'rtasidagi shaxssiz narsaviy munosabatlarga bo'shatib beradi. Bu munosabatlar ko'proq ramziy vositalar bilan boshqariladi (masalan, iqtisodiy munosabatlar uchun bunday vositachi asosan - pul).

Sotsial integrasiya (lot. Integratio - to'ldirilish, tiklanish; integer yaxlit, butun) sotsial differensiasiyaga nisbatdosh tushunchadir.hozirgi zamon sotsiologiyasida tizimlar nazariyasidagi integrasiya tushunchasidan foydalaniladi. Unga ko'ra, integrasiyada alohida differensiasiyalashgan qismlarni bir butun qilib turuvchi aloqa va shu holatga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Integrasiya turli xil sotsial sub'ektlar - individlar, tashkilotlar, davlatlar va hokazolar o'rtasida ixtilofsiz munosabatlar bo'lishini ko'zda tutadi. Sotsial tizimlar integrasiyasining darajasi va mexanizmi to'g'risidagi qarashlar tarixan o'zgarib kelgan.

Bajaradigan vazifalari, sohalariga qarab sotsial dinamikaning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

– Reproduktiv dinamika. Sotsial dinamikaning bu turi tug'ilish, ishlab chiqarish, ekologiyaaning sotsial jihatlarini o'z ichiga oladi. Aholi sonining o'sishi, tug'ilish miqdori, ularni belgilovchi omillar reproduktiv sotsial

dinamika sohasiga kiradi. Ishlab chiqarish, ekologiya va sotsial sub'ektlar reproduktiv o'rnamalarga aloqador bo'ladi.

- Maqom (status) sotsial dinamika. U o'z ichiga xizmat lavozimlarida ko'tarilish yoki pasayishni, turmush darajasi va sifati kabilarni qamrab oladi.

- Hududiy sotsial dinamika. Aholi ko'chishlari sur'ati va miqdorlarining sotsial jihatlari, katta shahar vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan sotsial muammolar, ishlab chiqarishning joylashtirilishi, uning sotsial oqibatlari hududiy (territorial) sotsial dinamika ob'ektlaridir.

- Ma'naviy hayot dinamikasi manfaatlar, qadriyatlar, fikrlar, normalar harakati, o'zgarishi va rivojlanishi bu soha doirasida bo'ladi.

- Siyosiy dinamika jamiyat sotsial-sinfy tarkibi, hokimiyat shakllari o'zgarishini anglatadi.

- Fan - texnika dinamikasi. Fan-texnika taraqqiyotining sotsial jihatlari, ishlab chiqarish vositalari o'zgarishlarining ijtimoiy sub'ektlar hayotiga ta'siri, axborot va kommunikasiya bilan bog'liq sotsiodinamik o'zgarishlar fan-texnika dinamikasiga kiradi.

Sotsial dinamika abstrakt, mavhum qonuniyat ifodasi emas. har bir mintaqa, ijtimoiy tuzumda o'ziga xos sotsiodinamikani ko'rishimiz mumkin.

Sotsial dinamika vertikal (yuqori va pastga) va gorizontal (ya'ni, parallel tomonga) yo'nalishda ro'y berishi mumkin. Yuqorida keltirilgan barcha sotsial dinamika turlarini vertikal va gorizontal yo'nalishda tekshirish mumkin. Jumladan, sotsial-sinfy struktura elementlari harakati sotsial stratifikasiya yondashuvi asosida qaralganda buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Sotsial stratifikasiya (lot. strath - tuzilma, qatlam) sotsiologik tushuncha bo'lib, bu tushuncha umuman jamiyatning, ayrim sotsial guruhlarining tarkibini, ularning turli-tuman belgilariga: daromadi, malakasi, ma'lumoti va boshqa darajalariga qarab, odatda, ierarxiya (yuqori va quyi) tarzda joylashgan ijtimoiy qatlamlarga bo'linishini tavsiflaydi. Funksionalizm nuqtai nazaridan, sotsial stratifikasiya tizimi jamiyatdagi sotsial rol va mavqelarning differensiasiyasi bo'lib, u har qanday jamiyatning ob'ektiv ehtiyojidir. Jamiyatning turli sohalarida stratalardan stratalarga harakatni ko'rish mumkin. Masalan, iqtisodiyot sohasida har bir odam milloner bo'lishi mumkin; siyosatda yirik siyosiy mansabga erishish mumkin; armiyada har bir askar general bo'lishi mumkin; diniy faoliyat sohasida - oliy diniy martabaga erishish mumkin; fan – bu, faoliyatning nisbatan zoe ketadigan sohasi bo'lib, biroq bunda ilgarilash mumkin; nikoh orqali foydali nikoh vositasida jamiyatning eng yuqori pog'onalariga g'oyat tez ko'tarilish mumkin. Kishilarning sotsial zinapoyadagi yuqoriga qarab siljishga intilishi - ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir. Odam bir vaqtning o'zida bir necha strataga kirishi mumkin. Bu stratalar institusional, madaniy, norasmiy mezonlar asosida ajratib ko'rsatilishi mumkin va ularga mos bo'lgan sotsiodinamika ham mavjud.

3. Yoshlar sotsiologiyasining o'ziga xos xususiyatlari.

Yoshlar sotsiologiyasi XX asrning 20-yillarida Olmoniyada, AQShda va Fransiyada shakllandi. 1928 yilda K.Mangeymning «Avlod muammosi» asari bosilib chiqdi. Bu asar yoshlarning sotsiologik muammolari ilmiy asosda o'rganilgan dastlabki asarlardan edi.

XX asrning 60-yillaridan yoshlar muammolarini tahlil qilishga va yechishga qaratilgan asarlar ko'plab chop etila boshlandi. Olmoniyada yoshlar sotsiologiyasi bo'yicha G.Shelskiyning «Skeptik avlod» (1957), F.Tenbrukning «Yoshlar va jamiyat» (1962); Venadagi sotsiologik institut direktori L.Rozenmayrning «Empirik sotsial tadqiqot bo'yicha qo'llanma» (1969), Amerika sotsiologi D.Kempbellning «Sotsializasiya bo'yicha spravochnik» (1969), Amerika sotsiologi S.Eyzenshtadtning «Avloddan avlodga» (1966) asarlari yoshlar sotsiologiyasining keng rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Hozirga davr yoshlar sotsiologiyasi doirasida yoshlar hayotini ilmiy-sotsiologik o'rganishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Yoshlar muammosini o'rganishda tarixiy yondoshish lozimligi. Yoshlarning ijtimoiy qarashlariga, hulqiga, qiziqishiga va boshqa jihatlarini tadqiq etishda muayyan tarixiy davr, shart-sharoitlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib baho berish talab qilinadi. Masalan, hozirda, shakllanib kelayotgan bozor munosabatlari sharoitida yoshlarning ijtimoiy qarashlari, qiziqishlari va yuzaga kelayotgan muammolar avvalgi davr, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdagiga nisbatan o'zgarib, yangicha mazmunga va xususiyatlarga ega bo'lmoqda.

2. Yoshlarning o'ziga xos turmush tarzini tahlil qilish va o'rganish. Bunda yoshlarning ijtimoiy holati, hayot kechirish tarzi va uning rivojlanishini nazariy va empirik jihatdan o'rganish.

3. Yosh avlodni har jihatdan rivojlanib borishini tahlil qilish. Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitning, muhitning o'zgarishi oqibatida avlodlar o'rtasida doimo muayyan rivojlanish ro'y beradi. Shu sababli, keksa avlod bilan yoshlar o'rtasida o'zaro ziddiyat vujudga keladi. Ko'pincha, yoshlarning manfaat va qiziqishlari, faoliyati, tashqi ko'rinishi (moda) keksa avlodda norozilik, e'tiroz tug'diradi.

4. Yoshlarga tabaqaviy jihatdan yondashib. Bu metodologik tamoyil yoshlarni turli tabaqalardan iborat guruhlariga ajratib o'rganishni bildiradi. Bozor munosabatlarining tarkib topa borishi bilan yoshlar o'rtasida ham tabaqalanish yanada kuchayishi tabiiydir. Hozirdanoq ularning turli ijtimoiy tabaqalarga ajralish jarayoni ro'y bermoqda. Bir tomondan, jamiyat ijtimoiy rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatuvchi yoshlar guruhlari: talabalar, yosh olimlar, ishchilar, fermerlar, ishbilarmon yoshlar, san'atkorlar, savdogar yoshlar kabi guruhlar salmog'i ortib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa yoshlar, bekorchi-sayok, giyoxvand, jinoyatchi kabi yoshlar jamiyat xayotida salbiy, disfunktsional ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, hozirda O'zbekiston miqyosida jinoyatchilikning 85 foizga yaqini 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar tomonidan sodir qilinayotganligini e'tiborga olsak, yoshlar

sotsiologiyasining jamiyat hayotida naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini anglash mumkin bo‘ladi.

Sotsiologiyada yoshlik bolalik davridan so‘ng ulg‘ayish davrigacha bir necha bosqichlarga ajratilib ko‘rsatiladi. Masalan, yoshlikning dastlabki, quyi chegarasi 14-16, yuqori chegarasi esa 25-30 yoshlarni o‘z ichiga oladi. 20 yoshgacha bo‘lgan yoshlarda asosiy muammo, ularning kasb tanlashi, ma‘lumot olishi va hayotga mustaqil qadam qo‘yishi bilan bog‘liq vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Sotsiologiyaning bu maxsus nazariyasi jamiyatniig barcha ijtimoiy sohalaridagi yoshlar bilan bog‘liq muammolarni o‘rganadi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoiti va yoshlar muammosi; xalq xo‘jaligi, fan va madaniyatning yosh mutaxassis kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji; ta‘lim tizimi va yoshlarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash; demografik jarayonlar va yoshlarni ish bilan ta‘minlash; yoshlarning ma‘lumot olishi va kasb tanlashi muammosi; yoshlarning kasb tanlashi va sotsial mobillik; yoshlarni kasb tanlashida milliy, hududiy va mintaqaviy xususiyatlar; yoshlarning ma‘lumot olish imkoniyatlarini oldindan prognoz berish; yoshlarda mehnat malakasini shakllantirish masalalari; shahar va qishloq yoshlari hayoti; yoshlarning turmush darajasi kabi masalalar shular jumlasidandir. Ushbu ma‘lumotlar bo‘yicha empirik va nazariy jihatdan sotsiologik tadqiqot olib borish. ularning statik va dinamik xususiyatlarini o‘rganish muhim hisoblanadi.

Yoshlar sotsiologiyasining o‘ziga xos qiyin, murakkabligi ham, uning ko‘p qirraligidadir. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida yoshlarni ish bilan ta‘minlash muammosi dolzarb masalalardan biridir. Bu muammoni hal etib borilishi yoshlar bilan bog‘lik bo‘lgan ko‘plab masalalarning yechimini topishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Bu borada, viloyatlarda yoshlarni ish bilan ta‘minlash borasida «Usta va shogird» tizimi asosida ko‘plab ishlar qilinmoqda. Bundan asosiy maqsad, yoshlarni milliy hunarmadchilikka, qadriyatlarga, an‘analarga hurmat va e‘zoz bilan munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalash hamda ularni moddiy jihatdan ta‘minlashni yaxshilashdan iboratdir..

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tarkib topa borishi, ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy qarashlarida jiddiy o‘zgarishlar yasamoqda. Shuning uchun yoshlarning kelajak hayoti rejalarini, ularning qiziqishlarini aniqlash maqsadida empirik-sotsiologii tadqiqotlar o‘tkazish va nazariy xulosalar chiqarish yoshlar sotsiologiyasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozim, yoshlarning kelajak hayotini rejalashtirish eng avvalo oiladan boshlanadi. Bu jihatdan yoshlar oila sotsiologiyasi bilan uzviy bog‘lik bo‘ladi.

Yoshlarning kasb tanlashi, ish joylariga ega bo‘lishi ishlab chiqarishning intensiv ravishda rivojlanishi va yuksak texnologik takomillashuv jarayonida ko‘p jihatdan ta‘lim tizimining sifatiga ham bog‘liq. Bu jihatdan esa yoshlar sotsiologiyasi ta‘lim, ilm-fan sotsiologiyasi bilan yaqin aloqadadir.

Prezidentimiz Islom Karimov o'zining qator asarlarida, so'zlagan nutqlarida hozirgi davrda mamlakatimizda yoshlar hayoti va faoliyatiga doir qator muammolarni ko'rsatib o'tgan.

O'zbekietonda yoshlar xayoti va faoliyatining ijtimoiy masalalari

O'zbekiston yoshlar mamlakati. Bugungi kunda mamlakatimizda o'ttiz yoshgacha bo'lganlar 17 million sakson ming nafarni yoki aholining 64 foizini tashkil etadi. Prezident I.A.Karimov yoshlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim o'rniga alohida ahamiyat qaratgan holda, quyidagi fikrni aytganlar: "...Ta'lim-tarbiya va professional tayyorgarlik darajasi bilan kelajagimizni, demokratik va iqtisodiy taraqqiyotimizning taqdirini hal qiladigan, jamiyatimiz hayotida munosib o'rin egallashga layoqatli bo'lgan, mamlakatimizni isloh etish va yangilash bo'yicha belgilab olgan yuksak maqsadlarimizga erishish yo'lida tom ma'noda tayanch, suyanch va hal qiluvchi kuch – yoshlar hisoblanadi."

Demograflarning tadqiqotlariga qaraganda, mamlakatimiz aholisining yuqori suratlarda o'sishi yaqin chorak asrda ham davom etadi. 2015 yilga kelib O'zbekiston aholisi 1,5 barobarga ortib, jami 36 million 330 ming kishidan ortishi kutilmoqda. Shu davr mobaynida mehnatga yaroqli aholi soni ham ikki barobarga oshadi va 2015 yilda qariyb 20 million nafar kishini tashkil etadi.

Bu raqamlar faqat yurtimiz aholisining son jihatdan o'sishinigina ko'rsatib qolmay. u navqiron millat sifatida katta intellektual imkoniyatlarga ega ekanini, ham, namoyon; etadi. Ana shu bois ham mamlakatimiz Prezidenti I Karimov istiqlolning ilk yillaridayoq «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat» degan g'oyani ilgari surdi.

Milliy mafkuramizning muxtasar shioriga aylangan ushbu so'zlar nafaqat ruhlantiruvchi da'vat, balki amaliy natijaga aylanish uchun davlat jamiyatning eng faol qatlami bo'lgan yoshlarga asosiy e'tiborni qaratmokda. «Sog'lom avlod uchun» ordenining ta'sis etilishi, «Kamolot», «Umid», «Mirzo Ulugbek» jamg'armalarining tuzilishi, yoshlar muammolari instituti faoliyatining yo'lga qo'yilishi, «O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni», «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda "Yoshlar yili" Davlat dasturining qabul qilinishi va hayotga jadal joriy etilayotganligi yuqoridagi fikrlarning amaliy isbotidir.

Ta'kidlash joizki, «Yoshlar yili» Davlat dasturining eng muhim xususiyati, u nafaqat bir yilga mo'ljallangan maqsad va vazifalarni emas balki, davlatimizning yoshlar siyosatiga doir dolzarb vazifalarni bajarish bilan bog'liq butun bir davrning mazmun-mohiyatini o'zida mujassam etadi.

«Yoshlar yili» Davlat dasturi quyidagi to'qqiz bo'limdan iborat.

Uning birinchi bo'limi «Yoshlar manfaatlarini yanada to'liqroq ta'minlash va ularning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-xuquqiy bazani takomillashtirish deb yuritiladi».

Ikkinchi bo'lim ta'lim sohasida qabul qilingan umummilliy Davlat dasturining so'zsiz bajarilishini ta'minlash masalalariga qaratilgan.

Uchinchi bo'limda ta'lim va kadrlar sifatini tubdan oshirish, mustaqil fikrlaydigan, o'zining qat'iy hayotiy e'tiqodi va qarashlariga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash haqidagi masalalarga bag'ishlangan.

Dasturning to'rtinchi va beshinchi bo'limlarida kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar bitiruvchilarining ishga joylashishi, mehnat jamoalarida moslashuviga ko'maklashish, yoshlarning ayniqsa, kichik shahar va qishloq joylarida ish bilan ta'minlanishiga qaratilgan chora-tadbirlar o'z ifodasini topgan. Davlat dasturida iqtidorli yoshlar bilan ishlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Bolalarning ijodiy qobiliyatlari, iqtidorini barvaqt aniqlash uchun shart-sharoitlar yaratishga dasturning oltinchi bo'limi bag'ishlangan.

«Yoshlar yili» Davlat dasturining yettinchi bo'limi yoshlaroda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, yoshlar sportini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan.

Sakkizinchi bo'limda yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab quvatlash ularning ma'naviy boy va jismonan sog'lom bolalarni tarbiyalashi uchun munosib uy-joy va maishiy turmush sharoitlarini yaratish haqida so'z boradi.

Yoshlar yili Davlat dasturining tadbqiq etish muvaffaqiyati ko'p jihatdan jamiyat a'zolarining undan qay darajada xabardorligi, uni amalga oshirish mas'uliyatini qay darajada his qila olishiga bog'liq. Shuning uchun ham uning to'qqizinchi bo'limi yoshlar yili dasturining mazmun-mohiyatini jamoatchilikka yetkazish masalalariga bag'ishlangan.

O'zbekistonning o'z istiqbolini yoshlarda ko'rishi sotsiolog olimlar oldiga ham ulkan vazifalarni qo'yadiki, bu sharaflı yumush jamiyatimizdagi muhim ijtimoiy qatlamning ijtimoiy qiyofasi, tavsifini, o'rganish, orzu-niyatlari haqida doimo boxabarlikni ta'minlashdan tashqari ular faoliyatini optimallashtirish, ezgulikka yo'naltirib turish, oxir oqibatda esa barkamol avlodni tarbiyalashga ham hissa qo'shishdan iboratdir. Shu boisdan ham yurtboshimizning «Biz iste'dodli, fidoyi bolalarimizga, farzandlarimizga bilim va kasb cho'qqilarini zabt etishi uchun qanot berishimiz kerak» degan fikrlari juda muximdir.

Ta'kidlash joizki, yoshlarning intellektual-ruxiy kamoloti ularning ma'naviy o'z-o'zini anglash jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlar xarakterida ijtimoiy ideallarning susayib ketishiga yo'l qo'yilmaslik muximdir.

Yoshlarning milliy o'zligini anglash sharoitida ular ijtimoiy manfaatlarini o'rganish hamda nazariy jihatdan tadqiq etish muxim ahamiyatga ega bo'lib, bular quyidagilardir:

- fikrlar xilma-xilligi nuqtai nazaridan mustaqillik sharoitida ijtimoiy manfaatlar mavjud konsepsiyalar orqali tahlil etiladi va zamonaviy sharoitlarga xos bo'lgan qarashlar tarzida ifodalab beriladi;
- ijtimoiy manfaatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, ahamiyati zamonaviy siyosiy jarayonlarda siyosiy va iktisodiy manfaatlar

bilan o'zaro uyg'un tarzda o'rganiladi;

- ijtimoiy manfaatlar mohiyati, mazmuni hamda jamiyat rivojidagi o'zni masalalarini sotsiologii jihatdan tahlil etadi;
- jamiyatda etnosiyosiy jarayonlarni tahlil etib, ularning millatlararo munosabatlarga ta'sirini hamda milliy manfaatlardagi o'zini ko'rsatadi;
- etnik masalalarning ijtimoiy taraqqiyot va jamiyat rivojidagi voqea-xodisalarga o'zaro alokadorlik dialektikasini o'rganib, ushbu jarayonning jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq xususiyatlarini tahlil etadi;
- jamiyatda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy omillarning ijtimoiy manfaatlarga ta'sirini o'tkazadi;
- hozirgi davrda ijtimoiy taraqqiyotga xos jarayonlar rivojida etnik manfaatlarining uslubi, milliy va umuminsoniy mazmun kasb etish xususiyatlarini nazariy tadqiqot etadi.

Sotsiologiya fani yoshlarni jamiyatdagi ijtimoiy va ruhiy o'ziga xos holatga ega bo'lgan yirik ijtimoiy gurux sifatida o'rganadi. Bu ijtimoiy va ruhiy xolatda ularning nafaqat yoshdagi tafovutlari, balki ijtimoiy-iqtisodiy, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy mavqei ham o'z ifodasini topadi. Yoshlar deganda, ma'naviy dunyosi shakllanish jarayonida bo'lgan, asosan 16-30 yoshlardagi insonlar tushuniladi.

Biroq, yoshlarning ijtimoiy jihatdan bir-biridan farqlanishi ayrim mutaxassislarni yoshining yuqori chegarasini turli guruxlarning ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy sifatleri shakllanishi davomiyligiga qarab aniqlashga undamokda. Jumladan, yosh ishchining bir kasb boshini qat'iy tutishi asosan 25 yoshlarda amalga oshsa, yosh olim 35 yoshida shakllanib ulg'ayadi. Yosh chegaralari u yoki bu mamlakatdagi mavjud tarixiy sharoit hamda ijtimoiy tuzumga bevosita bog'liqdir. Masalan, bolalar va o'smirlar mehnatini keng qo'llash yoshlar deb ataladigan qatlamning pastki chegarasini ancha quyi yoshdan aniqlashni taqozo etadi.

Ko'pgina mamlakatlarda yoshlikning quyi chegarasi tegishli xuquqiy-me'yoriy xujjatlarda yozib qo'yilgan. Mustaqil kasb faoliyati bilan shug'ullanish xuquqi va imkoniyatlari, ijtimoiy-siyosiy hayotda qatnashish xuquqi, o'z xatti-xarakatlari uchun fuqaro sifatida javob berish qobiliyati, nikohga kirish huquqi mana shu quyi chegarani aniqlashni taqozo etadi. Hozircha bu jaxon tajribasida 14-16 yoshni tashkil etadi.

Yoshlar tarkibiga kiruvchi o'quvchilar, talabalar, yosh ishchilar va boshqalar ijtimoiy-ruhiy yaqinligi, qiziqishlarining umumiyligi nafaqat bir mamlakat xududida, balki butun jaxon uzra ularning ommaviy chiqishlari, birgalikda harakatiga sabab bo'ladi. Yetimlarning mustaqil hayotga qadam qo'yish jarayonidagi murakkabliklar va qarama-qarshiliklar gohida ularning turli shakldagi, jumladan, aksil ijtimoiy

(jinoyatchilik, giyoxvandlik kabi) noroziliklarini, shuningdek, o'ziga xos yoshlar «madaniyati»ni keltirib chiqaradi. Jamiyatni sinflarga bo'lishni odat qilgan sho'rolar zamonida ayrim mutaxassislar yoshlarni aloxida sinf deb qarashga moyil bo'lgan paytlar ham bo'lgan. Biroq kommunistik mafkura mutaxassislari ham yoshlarni jamiyatdagi bir qatlam ekanini e'tirof etishga majbur bo'ldilar.

Yoshlik-bu ilohiy idealni izlash, maqsadlarni va hayotiy pozisiyani shakllantirish, kasb tanlash, oilaviy hayotga tayyorgarlik pallasidir. Xayotga qadam qo'yayotgan yigit-qizlar uchun ular faoliyati ijtimoiy foydali bo'lishgina emas, balki bu faoliyat shaxsiy maqsadlariga, intilishlariga muvofiqligi, hayot rejalarining amalga oshishiga mumkin qadar to'laroq ko'maklashishi ham g'oyat muhimdir.

Jamiyat o'z oldiga mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish vazifasini qo'ymoqda. Bu o'z qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash deganidir. Shundagina ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Prezident I.Karimov aytganidek, «Shuncha odam olomon bo'lib, har laxzada serqirra ehtiyoj sezib emas, aksincha aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z ma'suliyati bilan ongli tarzda ozod va hur fikrli bo'lib yashaydi. Bunda odamlar uyushgan jamiyatini, ular barpo etgan ma'naviy-ruhiy muhitni soxta aqidalar, baqiriq-chaqiriqlar, xavoyi shiorlar bilan aslo buzib bo'lmaydi. Ularni o'zlari aql-idrok va qalb amri bilan tanlab olgan hayotiy maqsadlardan chalg'itib bo'lmaydi.

Xorijdagi ayrim siyosiy kuchlar jamiyatimizning istiqboli bo'lgan yoshlarimizni o'z ta'siriga olishga urinayotgan ayni zamonda ta'lim-tarbiya tizimimizni, jumladan, sotsiologiya fani nazariyasini yoshlarga qaratishimiz, ular muammolari, uy-tashvishlarini bilib, yoshlar siyosatini ilmiy asosga ko'chirishimiz asosida yuqorida ta'kidlangan ijobiy natijalarni qo'lga kiritishimiz mumkin bo'ladi.

Mamlakatimizda yoshlarning o'z kelajagini qurishi uchun keng imkoniyatlar ochildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida yoshlarning mehnat qilish, kasb tanlash va ma'lumot olish xuquqi kafolatlangan. O'zbekistan xukumati yoshlarga alohida e'tibor qaratmoqda. Yosh mutaxassislar davlat boshqaruvining ma'suliyatli ishlariga ko'proq jalb etilmoqda. Ayniqsa, iqtidorli yoshlarga alohida e'tibor berilib, ularning faoliyati mavjud iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramasdan, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda.

«2001 yil 25 aprelda O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining ta'sis quriltoyi bo'lib o'tdi. Bugungi kunda harakatning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 201 ta tuman (shahar) – bo'limlari Kengashlari, 20 mingga yaqin boshlang'ich tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. 7 mln. 200 mingdan ortiq 14 dan 28 yoshgacha bo'lgan yoshlarning 4mln. 700 ming nafari yoki 65,3 % harakat a'zolaridir. Harakat tizimlarida 872 nafar yoshlar xizmat qilmoqda, 2068 yirik boshlang'ich

tashkilotlarning 2435 nafar yetakchilariga xarakat tomonidan ish haqi to‘lanmoqda, jami 3307 nafar faollar to‘liq yoki qisman ish haqiga egadir”²

“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tarkibida uning homiyligi asosida ishlaydigan 7 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilarni birlashtiruvchi bolalar tashkiloti tuzilgan. 2001 yil 21 may kuni bolalar tashkilotining ta’sis yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi, Nizomi qabul qilindi.”³

Ammo, yoshlar bilan bog‘lik muammolarni hal etish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni yetarli darajada, deb bo‘lmaydi. Bu borada faylasuflar, siyosatchilar, ruxshunoslar, axloqshunos olimlar va birinchi galda sotsiologlarning ilg‘or g‘oyalari hamda amalga oshiradigan aniq sotsiologik tadqiqotlari nixoyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Deviant xulq-atvor sotsiologiyasining mohiyati.

Jamiyatda o‘rnatilgan ijtimoiy me‘yorlardan chetga chiqqan holatlarini o‘rganuvchi deviant xulq-atvor sotsiologiyasi muammolari O‘zbekistonda istiqloq sharofati bilan o‘rganila boshlandi. Deviant xulq-atvorning turli ko‘rinishlarini mamlakatimiz olimlari o‘z tadqiqot ob‘ektlari doirasida o‘rganganlar. Respublika faylasuflari X.Shayxova, Q.Nazarov, M.Xolmatova, N.Komilov (shaxs tarbiyasida ma’naviy-axloqiy tarbiya ta’siri masalalari), sotsiolog M.B.Bekmurodov (ijtimoiy me‘yorlarga jamoatchilik fikrining ta’siri jarayonlari), huquqshunoslar A.Qulohmetov, Y.Karakterov, M.Usmonaliev (jinoyatchilikning umumiy jihatlari va o‘smirlar jinoyatchiligi masalalari), psixolog olimlar G‘.B.Shoumarov, N.A.Sog‘inov, S.A.Axunjanova, Z.R.Qodirova, E.Sh.Usmonov, B.M.Umarov (o‘z joniga qasd qilish va jinoyatchilik muammolarining ruhiy-psixologik asoslari), pedagog-olimlar O.Musurmonova, D.J.Sharipovalarning (oilada barkamol shaxsni tarbiyalash hamda giyohvandlik, ichkilikbozlik, chekish kabi illatlarning oldini olish muammolari) olib borgan ilmiy ishlarini shunday ishlar jumlasiga kiritish mumkin.

Jamiyatda insonlar faoliyati, xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini ijtimoiy me‘yorlar boshqaradi. Ijtimoiy me‘yor jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo‘lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan sotsial muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Ijtimoiy me‘yorning bir necha turlari mavjud bo‘lib, huquqiy, axloqiy, diniy hamda urf-odatlariga oid me‘yorlar shular jumlasidandir.

Ijtimoiy me‘yorning afzalligi shundaki, yoshligidanoq muayyan me‘yorlarga moslashtirib borilgan shaxslar umum tomonidan qabul qilingan tamoyillar doirasidan chetga chiqmaydi va boshqalardan ham shuni kutadi. Jamiyat taraqqiy etib borgan sari o‘rnatilgan me‘yorlar ham eskirib boradi va yangi me‘yorlar o‘rnatiladi. Yangi me‘yorlarni o‘rnatish jarayoni jamiyatda o‘rnatilgan mavjud me‘yorlar doirasini kengaytirish va o‘zgartishdan iboratdir.

² Убайдуллаев Б. «Камолот» кеча, бугун, эртага “Ижтимоий фикр”. 2004. 3-сон. 13-бет

³ Ўша матн

Jamiyat a'zolarini mazkur ijtimoiy me'yorlarga amal qilib yashashlarini nazorat qilib boruvchi institutlar ijtimoiy nazorat institutlari deyiladi. Ushbu institutlarga oila, maktab, mahalla, huquqni muhofaza qilish organlari va hokazolar kiradi.

Insonlar bolalarga ijtimoiy me'yorlarni o'rgatib borish bilan birga, xulq-atvor me'yoriy talablarining to'g'ri bajarilishini nazorat etishadi va bu bilan ijtimoiy nazorat vakili vazifasini bajarishadi. Nazoratni yakka shaxs amalga oshirsa, bu individual tavsifga ega bo'ladi, agar butun bir jamoa, oila, do'stlar, maktab, mahalla (qo'ni-qo'shnilar) tomonidan amalga oshirilsa, ijtimoiy tavsifga ega bo'ladi hamda u ijtimoiy nazorat deyiladi.

Ijtimoiy nazorat vakillari insonlar xulq-atvorini boshqarishning eng muhim vositasi bo'lib, deviant xulq-atvorning oldini olishda ham ushbu jamoalarning o'rni katta bo'ladi.

Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu — oiladir: Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sog'lom oila muhitining o'rni kattadir.

«Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi.

Afsuski, oramizda shunday insonlar ham uchraydiki, ular jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmasdan, balki unga to'siq bo'luvchi me'yordan og'ish holatlarini yuzaga keltiradilar. Jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish holatlari sotsiologiyada «deviantlik holatlari», undan tug'iluvchi xulq-atvorni «deviant xulq-atvor» deb nomlanadi.

Deviant xulq-atvor — jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo'lib, yolg'onchilik, dangasalik, o'g'rilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish va boshqa ko'plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi.

Quyidagilar deviant xulq-atvorning nisbatan kengroq tarqalgan ko'rinishlaridan hisoblanadi:

a) jinoyatchilik. Muayyan davlatda o'rnatilgan qonun va me'yorlarga nisbatan ayrim shaxslarning salbiy munosabati jinoiy faoliyat, mazkur shaxs esa jinoyatchi hisoblanadi.

b) ichkilikbozlik. Bu borada ilmiy adabiyotlarda bir necha tasniflar mavjud: 1) Alkogolni har-har zamonda iste'mol qilish. 2) Alkogolni ko'p iste'mol qilish — spirtli ichimliklarni mumtazam, ya'ni haftada bir martadan bir necha martagacha yoki, birvarakayiga o'rtada tanaffus bilan ko'p mikkorda (200 ml.dan oshiq). Bu ko'pincha alkogolizmga olib keladi. 3) Alkogolizm — spirtli ichimliklarga patologik (muttasil) o'rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik.

v) giyohvandlik. Giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga muntazam ruju qo'yish va tibbiy ko'rsatmalarsiz iste'mol qilish.

g) fohishabozlik. Fanda rasmiy nikohsiz jinsiy aloqa ikki turga bo'lib o'rganiladi: 1. Konkubinat — nikohsiz birga yashash. 2. Fohishabozlik — pul uchun o'z tanasini sotish.

G'arbda asosan ikkinchisi qoralansada, Sharkda ikkala holatga ham me'yordan og'ish sifatida qaraladi.

d) byurokratiya. «Byurokratiya» termini aslida «hokimiyanga ega bo'lgan xodim» degan ma'noni anglatadi. Biroq davrlar o'tishi bilan «byurokratiya» mahalliychilik, qog'ozbozlik, to'rachilik, mansabni suiste'mol qilish kabi salbiy ma'nolarda qo'llanila boshlaydi. Hozirgi kuyda ko'plab davlatlarda «byurokratiya» termini asil ma'nosini yo'qotib, boshqaruvdagi o'ziga xos idoraviy uslub tarzida tushuniladi.

Yuqoridagilardan tashqari mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, boqimandachilik kabi salbiy holatlar ham ijtimoiy me'yordan chskinishning diqqattalab ko'rinishlaridan hisoblanadi.

Deviant xulq-atvor muammosini sotsiologiya fani doirasida dastlab. E.Dyurkgeym maxsus o'rgangan bo'lsa-da, jamiyatning eng qadimiy muammolaridan biri sifatida deviant holatlarga munosabatlar qadim davrlardan shakllanib kelgan. Qadimgi xalqlarning diniy-mifologik tasavvurlari, xususan, Misr, hindiston va Xitoy diniy qonun-qoidalaridagi axloqiy me'yorlar bu sohadagi dastlabki qarashlar edi. Qadimgi yunon va Rim faylasuflari ham o'z asarlarida mazkur muammolarni tahlil kilib berganlar.

O'rta asrlarda axloq me'yorlari diniy qarashlar ta'siri ostida rivojlandi va ulardan chekinish diniy nuqtai nazardan baholangan. Yevropada xristian dini barcha sohada hukmronlik qilgan bo'lsa, sharq dunyosida axloqiy-huquqiy me'yorlar va ular haqidagi ta'limotlar islom falsafasi ta'sirida rivojlandi.

XVII-XVIII asrlarga kelib, Yevropada jamiyat rivojining kuchayishi axloq me'yorlarining xristiancha talablari doirasiga sig'may qoldi. XVIII asr mutafakkirlari ijtimoiy me'yor va undan chekinish muammosini yanada chuqurroq tahlil qildilar. Sh.L.Monteske, J.J.Russo, Ch.Bekkaria, Gelvesiy, D.Didro, P.Golbax, Morelli va Sh.Furelar o'z ilmiy izlanishlarida ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarni topishga intilganlar.

XIX asr oxirlarida tabiiy fanlarda erishilgan ilmiy yutuqlar ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xususan, sotsiologiyada ijtimoiy me'yordan og'ish holatlarini tushuntiruvchi dastlabki ta'limot — E.Dyurkgeymning «anomiya» g'oyasi yaratiddi.

Ma'lumki, sotsiologiyaning fan bo'lib shakllanishida ijtimoiy patologiya omiliga e'tibor qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada E.Dyurkgeymning to'rtta asari chop etilgan bo'lib, shulardan biri «O'z joniga qasd qilish» (1897) kitobi deviantlik muammosiga bag'ishlangan edi.

Amerika sotsiologiyasida muhim o'rin tutuvchi ta'limotlardan biri E.Saterlendning differensial aloqalar ta'limotidir. Bunga ko'ra, har qanday xulq-atvor, shu jumladan, deviant xulq-atvor ham o'rganiladi, ya'ni mavjud jamiyat a'zolari tomonidan mazkur xulq-atvor boshqalarga o'rgatiladi.

Deviant xulq-atvor muammolarini tahlil qilishda R.Merton ishlab chikkan ta'limot sotsiologiyada yetakchi o'rin tutadi. EDyurkgeymning anomiya g'oyasini rivojlantirib, Merton deviant xulq-atvorga quyidagicha ta'rif beradi: «Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarining bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir».

Shaxslarda yuz beruvchi deviant holatlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan uchta omilni ko'rsatish mumkin. Bular shaxs xususiyatlari, muammoli holat va ijtimoiy nazorat institutlari. Aynan mana shu omillar shaxsning qanday faoliyat yuritishini belgilab beradi.

Shaxs xususiyatlarining shakllanishida asosan 3 ta omil muhim ahamiyat kasb etadi, bular: 1) irsiy omillar; 2) psixo-fiziologik omillar; 3) shaxsning bilim darajasi.

Shuningdek, ijtimoiy og'ishlarning yuz berishiga shaxsning qat'iyatli yoki qat'iysizligi, prinsipialligi yoki prinsipsizligi, qoidalarga bo'ysunish yoki bo'ysunmaslik odatlari, biron-bir qarorga kela olish imkoniyati, tashqi ta'sirga qanchalik berilishi, irodasi va boshqa shu kabi psixofiziologik holatlari, mijozi ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Deviant xulq-atvorni o'rganishda muammoli vaziyat muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli vaziyat shunday holatki, u sub'ektdan yechimini talab qiladi, uning yechimi ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan bo'lsa-da, u yoki bu sabablarga ko'ra, ushbu me'yorlarni qo'llash qiyinroq bo'ladi.

Eng katta muammoli vaziyat ziddiyatli holatlarda, ya'ni turli shaxslar yoki guruhlarining manfaatlari bir-birlariga to'qnash kelganda yuz beradi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, o'z joniga qasd qilishlarning 40%i oilaviy ziddiyatlar oqibatida sodir etiladi.

Ziddiyatli holatlarning yuzaga kelishiga ba'zan shaxs xususiyatlari sabab bo'lsa, ba'zan kichik ijtimoiy guruhlar, oila, mahalla, ishlab chiqarish brigadasi a'zolari, sinfdoshlar orasidagi salbiy munosabatlar sabab bo'ladi.

Jamiyatda shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi muammoning va uni hal qilish imkoniyatlarining murakkabligi darajasiga ko'ra muammoli holatning to'rtta asosiy holati ko'zga tashlanadi: 1) hech qanaqa muammo yo'q holat, bunda holat hech qanaqa qaror qabul qilishni talab qilmaydi; 2) muammo bor, biroq qiyinroq yoki osonroq bo'lsa-da, uning yechimi ham ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan holat; 3) mavjud muammoni sub'ekt ijtimoiy me'yorlar doirasida hal qila olmaydigan holat; 4) muammoni hech qanaqasiga hal qilib bo'lmaydigan holat. Ushbu turlicha holatlar keng ko'lamda biridan ikkinchisiga o'tib turadi.

Muammoli holatning mazmuni sub'ektning individual maqsadlari bilan jamiyat manfaatlari orasidagi maqsadlar va unga erishishning mumkin bo'lgan vositalari orasidagi; faoliyatning kutilayotgan oqibatlari va uning qo'shimcha natijasi (ijobiy yoki salbiy) orasidagi, shuningdek ijtimoiy me'yor talablari va shaxs xususiyatlari orasidagi ziddiyatlarning (ko'pincha o'ylab chiqarilgan) paydo bo'lishidan iboratdir.

Jamiyat a'zolari shaxsiy nuqnai nazarlarining shakllanishiga, ularning deviant xulq-atvorga nisbatan ijtimoiy faol munosabatlarining tarkib topishiga tarbiyaviy jarayonlar uchun bevosita mutasaddi shaxslar, tashkilotlar rahbarlarining o'rni va roli kattadir. «Ba'zilarga mumkin, boshqalarga mumkin emas», «hozir yaxshi, ertaga yomon» va shu kabi munosabat holatlarining ikkilamchi fe'l-atvor shaklida, ya'ni parallel standartlar yo'nalishida amal qilishiga izn berish juda xavflidir. Shu boisdan, har qanday holatlarda ham mansabdor shaxslar, turli jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalarining rahbarlari, pedagog va tarbiyachilar, qonunni himoya qiluvchi tashkilotlar vakillarining xulq-atvor me'yorlarini buzishi qat'iy qoralanadi.

Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirishlar bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va sotsial oqibatlariga ko'ra mohiyatan farqli jihatlarga egadir.

Birinchi farq, ijtimoiy zararli odatlarning uzoq davom etishi deviant xulqi turmush tarzining uzviy bo'lagiga aylanib ketishidan iborat bo'ladi. Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrof-muhitdan norozilik, uydagi tushunmovchiliklar va hokazolar — bularning barchasi sub'ekt ruhiyatini jarohatlaydi hamda u mavjud vaziyatni o'zgartirishga urinadi. Bu o'riqda ijtimoiy institutlardagi kamchiliklar, shu jumladan, ziddiyatlar rivojlanishining oldini oyauvchi va ularga qarshi kurashuvchi ijtimoiy nazorat tizimlari ham salbiy rol o'ynaydi.

Bularning ikkinchi farqli jihati yuqoridagi holatlarni hal qilishning ma'lum qiyinchiliklarga egaligidir. Ma'lumki, har qanday holatda ham, ko'p «qurbon» berib, bo'lsada, to'g'ri yechimga erishish mumkin. Lekin hamma gap shundaki, sub'ekt «qurbon» bera oladimi: xotini (yoki eri) bilan ajralib keta oladimi, yangi kasbga ega bo'la oladimi yoki yo'qmi. Qat'iy qarorga kela olmay, ko'pincha sub'ekt «o'rinbosar» vositalarga, ichkilik va giyohvand moddalarga murojaat etadi.

Bunday holatlarning keyingi farqi shundaki, ko'pincha sub'ekt ularni hal qilishning noto'g'ri yo'llarini tanlaydi. Oilaviy va ishdagi janjallar odatga aylanib qolganda bundan «qutulishning» noto'g'ri xayoliy yo'llari, ichkilik, giyohvand vositalar va hokazolarga murojaat etiladi. Biroq bu yo'l ziddiyatning chuqurlashuviga va turmush tarzini zararlantiruvchi omilga olib keladi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda O'zbekistondagi jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 2002 yili 49173 shaxsga nisbatan jinoyat ishi ko'rilgan bo'lsa, ulardan 2163tasi voyaga yetmaganlardir, bu esa 4,3%ni tashkil etadi. Bulardan 613tasi (28%) maktab o'quvchilari, 644tasi (29%) litsey va kollej o'quvchilari ekanligi aniqlangan.

2003 yilning 9 oyida 49584 shaxsga nisbatan jinoiy ish ko'rilgan bo'lsa, ulardan 2049tasini (4,1%) voyaga yetmaganlar tashkil etadi. Ularining 613tasi (29%) maktab o'quvchilari, 160tasi (7,8%) litsey va kollej o'quvchilaridir.

Qisqacha hulosalar

Mamlakatimizda voyaga yetmaganlar sodir etayotgan jinoyatlar kamayib bormoqda. Ayniqsa, maktab, litsey va kollejlarda ta'lim olayotganlar orasida

jinoyatchilik kamligi o'quvchilarining bo'sh vaqtini bexuda o'tkazmayotganligidan darak beradi. Bu borada respublikada Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida amalga oshirilayotgan tadbirlar o'z samaralarini berayotganligini ta'kidlash joizdir.